

## MASOFAVIY TA'LIM BERISHDA MUALLIFLIK HUQUQINING O'RNI

Ismailova Surayyoxon Izzatovna

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi.

+99893-569-75-73. [Ismailovasurayyo27@gmail.com](mailto:Ismailovasurayyo27@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15364494>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada masofaviy ta'limgarayonida mualliflik huquqlarining ahamiyati yoritilgan. Raqamli kontentdan foydalanish, uni yaratish va tarqatish bosqichlarida mualliflik huquqlariga rioya qilish dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi – masofaviy ta'limda mualliflik huquqlarining buzilish holatlarini aniqlash va ularni oldini olish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdir. Tahlil, solishtirma va huquqiy yondashuv metodlari asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, elektron darsliklar va ta'limiy resurslardan foydalanishda mualliflik huquqlari ko'plab hollarda buzilayotgani aniqlangan. Ushbu natijalar ta'lim muassasalarida intellektual mulkni himoya qilishga doir chora-tadbirlarni kuchaytirish, pedagoglar va o'quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda qo'llanishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, mualliflik huquqlariga rioya qilish masofaviy ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rinn tutadi.

**Kalit so'zlar:** mualliflik huquqi, masofaviy ta'lim, raqamli kontent, intellektual mulk, elektron resurslar, huquqiy madaniyat, ta'lim texnologiyalari.

## THE ROLE OF COPYRIGHT IN DISTANCE EDUCATION

**Abstract.** This article explores the significance of copyright in the context of distance education. The use, creation, and distribution of digital content require strict adherence to copyright laws, making it a crucial issue in modern education. The aim of the study is to identify cases of copyright infringement in distance learning and to develop recommendations for their prevention. Based on analysis, comparison, and legal methodology, the research reveals that copyright violations are common in the use of electronic textbooks and educational resources.

These findings can be applied in educational institutions to strengthen measures for protecting intellectual property and to foster legal awareness among teachers and students. In conclusion, respecting copyright plays an essential role in improving the quality of distance education.

**Keywords:** copyright, distance education, digital content, intellectual property, electronic resources, legal awareness, educational technologies.

### Kirish

So'nggi yillarda dunyo miqyosida ta'lim tizimida katta o'zgarishlar yuz bermoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida an'anaviy ta'lim shakllari bilan bir qatorda masofaviy ta'lim ham keng miqyosda ommalashdi. Xususan, COVID-19 pandemiyasi davrida yuzaga kelgan global inqiroz masofaviy ta'limning dolzarbligini yanada oshirdi. Ko'plab oliy o'quv yurtlari, maktablar va boshqa ta'lim muassasalari onlayn platformalarga o'tishga majbur bo'ldi. Bunday sharoitda raqamli o'quv resurslari, video darsliklar, elektron dars rejalarining roli ortdi.

Shu bilan birga, masofaviy ta'limda foydalaniladigan o'quv materiallarining aksariyati mualliflar tomonidan tayyorlanadi va elektron shaklda tarqatiladi. Bu esa intellektual mulk huquqlarining buzilish xavfini oshiradi. Ayniqsa, o'qituvchilar yoki tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan mualliflik mahsulotlari ijtimoiy tarmoqlar yoki turli platformalarda muallif ruxsatisiz foydalanilayotgani holatlari ko'paymoqda.

O‘z navbatida, bu mualliflik huquqini buzish, intellektual mulkka nisbatan hurmatsizlik, va huquqiy savodxonlik yetishmasligidan dalolat beradi.

Mualliflik huquqi – bu shaxsning ijodiy mehnati mahsuli sifatida tan olinishi va himoya qilinishini ta’minlovchi huquqiy institutdir. Ta’lim tizimida bu huquqning muhofaza qilinishi, nafaqat adolat tamoyilini qaror toptiradi, balki o‘qituvchilarni yanada sifatli kontent yaratishga undaydi. Ayniqsa, raqamli makonda o‘quv jarayonini tashkil qilishda pedagoglar tomonidan yaratilgan kontentga bo‘lgan huquqiy munosabat ularning intellektual mulkini asrashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.<sup>1</sup>

Ushbu maqolada masofaviy ta’lim sharoitida mualliflik huquqining o‘rni, uni ta’minlash yo‘llari va yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida samarali yechimlar ham ko‘rib chiqiladi. Mavzuning dolzarbliji, ayniqsa, bugungi kunda raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim sifati va adolatli huquqiy munosabatlarni shakllantirish zaruratidan kelib chiqadi.

## Metodologiya

Ushbu maqola ilmiy-tadqiqot metodlariga asoslangan bo‘lib, masofaviy ta’limda mualliflik huquqining o‘rni va uni himoya qilish masalalarini o‘rganishda bir nechta metodlardan foydalanildi. Asosiy yondashuv sifatida sifat tahlili (qualitative analysis) tanlandi, chunki muammo chuqur ijtimoiy-huquqiy mazmunga ega bo‘lib, son jihatidan emas, balki mazmunan tahlil qilishni talab etadi.

Tadqiqot jarayonida mavjud qonunchilik hujjatlari, normativ-yo‘riqnomalar materiallari, xalqaro tajriba, hamda ta’lim sohasidagi amaliy holatlar o‘rganildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida"gi Qonuni, "Raqamli ta’lim to‘g‘risida"gi qonunchilik hujjatlari, shuningdek, UNESCO va WIPO (World Intellectual Property Organization) kabi xalqaro tashkilotlarning masofaviy ta’lim va intellektual mulk masalalariga oid tavsiyalari asos qilib olindi.

Shuningdek, sifatli tahlil metodidan tashqari, qiyosiy huquqiy tahlil usuli qo‘llanildi. Bu usul orqali O‘zbekiston tajribasi boshqa mamlakatlar, jumladan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Rossiya tajribalari bilan solishtirildi. Bu esa masalaga nisbatan kengroq va chuqurroq yondashuvni ta’minladi.

Tadqiqot davomida ayrim oliy ta’lim muassasalari va umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar bilan suhbatlar tashkil etildi. ularning masofaviy ta’limda mualliflik huquqiga nisbatan munosabati, duch kelayotgan muammolari va takliflari o‘rganildi.

Ushbu empirik ma’lumotlar tahliliga asoslanib, real holatga mos ilmiy xulosalar chiqarildi.

Bundan tashqari, ochiq ma’lumotlar manbalaridan, jumladan, internetda mavjud elektron darsliklar, videodarslar, vebinarlar va onlayn platformalardagi kontentlar kuzatilib, ularning mualliflik huquqi bilan bog‘liq holatlari tahlil qilindi. Bunda kontent egasining ismi ko‘rsatilgan yoki ko‘rsatilmagan holatlari, foydalanish shartlari, tarqatilish mexanizmlari o‘rganildi.<sup>2</sup>

Maqolani tayyorlashda ilmiy-tahliliy uslub saqlangan holda, dolzarblik, yangilik va amaliy ahamiyat mezonlariga qat’iy amal qilindi. Maqola yozilishida ilmiy betaraflik, ishonchlilik va tekshiruvchanlik tamoyillariga asoslanildi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni. (O‘RQ-42, 20.07.2006 y.)

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, PQ-4708-son, 2020 yil 28 apreldagi.

## Natijalar

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, masofaviy ta'lif jarayonida mualliflik huquqiga rioya qilish masalasi hali ham to'liq shakllanmagan va ko'plab holatlarda e'tibordan chetda qolmoqda. Xususan, o'qituvchilar tomonidan yaratilgan elektron kontent – bu videodarslar, testlar, taqdimotlar, metodik qo'llanmalar va boshqa o'quv resurslari – ko'pincha internet orqali ochiq ravishda tarqatiladi, biroq ularga mualliflik huquqini ko'rsatuvchi ma'lumotlar ilova qilinmaydi.

O'rganilgan misollar asosida aniqlanishicha, ko'plab onlayn platformalarda joylashtirilgan o'quv materiallari muallifning ruxsatisiz boshqa foydalanuvchilar tomonidan qayta ishlanmoqda, tahrir qilinmoqda yoki o'z nomidan taqdim etilmoqda. Bu esa nafaqat mualliflik huquqlarining buzilishi, balki pedagogik mehnatga nisbatan hurmatsizlik sifatida talqin etilishi mumkin.

So'rovnomalari va suhbatlar asosida aniqlangan yana bir muhim jihat – bu pedagoglar orasida mualliflik huquqiga oid bilim va tushunchalarning yetarli darajada emasligi. Ularning aksariyati o'zlari yaratgan darsliklar, video yoki elektron materiallar ustidan huquqiy himoya mavjudligini bilmasligi yoki bu boradagi huquqiy jarayonlar haqida ma'lumotga ega emasligi aniqlandi.<sup>3</sup>

Shuningdek, O'zbekiston ta'lif tizimida masofaviy ta'lif uchun maxsus intellektual mulk platformalari yoki mualliflik huquqini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha avtomatlashtirilgan tizimlarning yo'qligi muammolardan biri sifatida qayd etildi. Ko'plab oliy ta'lif muassasalarida mualliflik huquqi bilan bog'liq masalalar huquqiy hujjatlar darajasida belgilab qo'yilgan bo'lsa, ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari sust rivojlangan.

Kalqaro tajriba bilan solishtirganda esa, ayrim rivojlangan davlatlarda mualliflik huquqlarini muhofaza qilish va ularga amal qilish masalasi ta'lif tizimining ajralmas qismi sifatida shakllangan. Masalan, AQShda "Fair Use" (adolatli foydalanish) tamoyili asosida o'qituvchilarga ma'lum doiradagi kontentdan foydalanish huquqi berilgan bo'lsa, Yevropa mamlakatlarida maxsus raqamli litsenziyalash tizimlari ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, quyidagi muhim natjalarga erishildi:

- Masofaviy ta'linda mualliflik huquqlarining buzilishi keng tarqalgan va bu holat pedagoglar, talaba-yoshlar hamda ta'lif muassasalarining o'zaro huquqiy munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.
- Pedagogik jamoalarda mualliflik huquqi bo'yicha bilim yetarli emas, bu esa yaratilgan materiallarning noqonuniy ishlatilishiga sabab bo'lmoqda.
- Huquqiy savodxonlikni oshirish, mualliflik huquqi bo'yicha maxsus o'quv kurslarini joriy etish va pedagoglar uchun amaliy ko'mak mexanizmlarini yaratish dolzarb masala hisoblanadi.
- O'zbekiston ta'lif tizimida elektron kontentni himoya qiluvchi raqamli vositalar va mualliflik huquqini avtomatik tarzda ro'yxatdan o'tkazish mexanizmlari ishlab chiqilishi zarur.

## Muhokama

Masofaviy ta'lif so'nggi yillarda jadal rivojlanib, o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Xususan, pandemiya yillari tajribasi bu ta'lif shaklining qulay va zarur bo'lgan jihatlarini yaqqol ko'rsatdi. Shu bilan birga, bu jarayon bir qator muammolar, jumladan, mualliflik huquqlarining buzilishi, intellektual mulkni himoya qilishdagi bo'shliqlar va huquqiy savodxonlikning pastligi kabi holatlarni ham yuzaga chiqardi.

<sup>3</sup> Rasulov A.X., Tursunov B.T. *Intellektual mulk asoslari*. – T.: Fan va texnologiya, 2017.

Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, masofaviy ta'limda yaratilayotgan darsliklar, taqdimotlar, audio va video materiallar kabi elektron resurslar ko'pincha mualliflik huquqini e'tiborga olmagan holda ommaga taqdim etilmoqda. Bu esa muallifning mehnati, ijodiy salohiyati va mulkiy huquqlarining himoyasiz qolishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, texnologik qulayliklar sababli kontentni nusxalash, qayta ishlash va boshqa nom ostida tarqatish juda sodda jarayonga aylangan. Bu holatda pedagoglar o'z materiallarni himoya qilish yo'llarini bilmasligi natijasida huquqiy muammolarga duch kelmoqda.<sup>4</sup>

Muhokama davomida alohida ta'kidlash joizki, mualliflik huquqining buzilishi nafaqat o'qituvchi shaxsiy manfaatlariga, balki butun ta'lim tizimiga ham zarar yetkazadi. Agar pedagoglar o'z intellektual mahsulotlarini erkin himoya qila olmasalar, ular yangi kontent yaratishga rag'batlari pasayadi. Bu esa ta'lim sifatining susayishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, mualliflik huquqlarini himoya qilish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va ularni amaliyatga joriy etish masalasi dolzarbdir.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda masofaviy ta'limda mualliflik huquqlari aniq me'yorlar bilan tartibga solinadi. Maxsus raqamli platformalar orqali pedagoglarning materiallari avtomatik ro'yxatdan o'tkaziladi, ularning tarqatilish jarayoni nazorat qilinadi. Bu kabi tizimlar pedagoglar uchun qulaylik yaratadi, shuningdek, qonuniy asosda ishlash madaniyatini shakllantiradi.

O'zbekistonda esa bunday tizimlar hali to'liq shakllanmagan. Bu esa mualliflar huquqlarining buzilishi xavfini oshiradi. Shu sababli, tegishli ta'lim muassasalari, Adliya vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamkorligida raqamli mualliflik huquqi reyestri yoki intellektual mulkni himoya qilishga mo'ljallangan platformalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish, mualliflik huquqi tushunchasi va uning zarurati haqida tushuntiruv ishlari olib borilishi muhimdir. Maxsus seminarlar, treninglar va metodik qo'llanmalar orqali bu sohadagi bilimlar chuqurlashtirilsa, nafaqat huquq buzilishining oldi olinadi, balki ta'lim muhitida ijodiy yondashuv va yangilik yaratishga rag'bat ortadi.<sup>5</sup>

Umuman olganda, masofaviy ta'limdagi mualliflik huquqlari masalasi zamonaviy ta'limning muhim va ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilishi lozim. Bu borada qonunchilikni takomillashtirish, amaliy mexanizmlarni yaratish va ta'lim subyektlari o'rtasida muvofiqlashtirilgan hamkorlikni kuchaytirish zarur.

### **Xulosa**

Masofaviy ta'limning jadal rivojanishi ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish zaruratini yuzaga keltirdi. Bu esa, o'z navbatida, elektron ta'lim resurslarini yaratish, ulardan foydalanish va ularni tarqatish jarayonida mualliflik huquqlarining dolzarbligini oshirdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, hozirgi davrda o'qituvchilar va boshqa ta'lim subyektlari tomonidan yaratilayotgan dars materialari, video darslar, taqdimotlar va boshqa raqamli kontentlar ko'pincha mualliflik huquqiga oid qonun normalariga to'liq amal qilmasdan ishlatilmoxda. Bu esa mualliflarning huquqlari buzilishiga va ularda yangi kontent yaratishga nisbatan ishtiyoqning pasayishiga olib kelmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mualliflik huquqlarining to'laqonli himoyasini ta'minlash uchun bir necha muhim omillarga e'tibor qaratish zarur.

<sup>4</sup> Xamidov R.A. *Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar: imkoniyat va muammolar*. – T.: Ilm Ziyo, 2021.

<sup>5</sup> Anderson T., Dron J. *Teaching Crowds: Learning and Social Media*. – AU Press, 2014.

Avvalo, pedagoglar va talabalar o‘rtasida mualliflik huquqi madaniyatini shakllantirish lozim. Bu borada muntazam tarzda huquqiy-ma’rifiy ishlar olib borish, seminar-treninglar tashkil etish, amaliy qo‘llanmalar tayyorlash kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, raqamli mualliflik huquqini ro‘yxatdan o‘tkazish va himoya qilish imkonini beruvchi elektron tizimlarni joriy etish, mavjud qonunchilikni yanada takomillashtirish va uni zamонавиу тeхнологиялар асосида moslashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Chet el tajribasi asosida O‘zbekistonda ham mualliflik huquqlarini raqamli muhitda huquqiy jihatdan mustahkamlovchi va tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Masofaviy ta’limda mualliflik huquqlariga rioxaliga qilish ta’lim sifatiga bevosita ta’sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Mualliflik huquqlarining ta’milanishi — pedagogik innovatsiyalarni rag‘batlantirish, ta’lim resurslari sifatini oshirish va ijodkorlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, raqobatbardosh ta’lim tizimini barpo etishda muhim poydevor bo‘la oladi.

Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta’lim jarayonida mualliflik huquqiga oid masalalar har bir pedagog va ta’lim muassasasi uchun ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rilmog‘i lozim. Bu boradagi harakatlar faqatgina huquqiy himoyani emas, balki kelajak avlod uchun intellektual mulk madaniyatini shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni. (O‘RQ-42, 20.07.2006 y.)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, PQ-4708-son, 2020 yil 28 apreldagi.
3. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – T.: Ma’naviyat, 2008.
4. Rasulov A.X., Tursunov B.T. *Intellektual mulk asoslari.* – T.: Fan va texnologiya, 2017.
5. Xamidov R.A. *Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar: imkoniyat va muammolar.* – T.: Ilm Ziyo, 2021.
6. UNESCO. *Copyright and education in the digital environment.* Paris: UNESCO Publishing, 2020.
7. Anderson T., Dron J. *Teaching Crowds: Learning and Social Media.* – AU Press, 2014.
8. Шестаков Д.А. *Авторское право в цифровую эпоху.* – М.: Юрайт, 2019.
9. Jumaqulov S.M. *Masofaviy ta’limda huquqiy masalalar va yechimlar.* – T.: Iqtisodiyot, 2022.
10. OECD. *Education and Copyright: International Experiences.* – OECD Publishing, 2021.